

MUHANDISLIK

& IQTISODIYOT

№4

ijtimoiy-iqtisodiy, innovatsion texnik,
fan va ta'limga oid ilmiy-amaliy jurnal

2026
APREL



Milliy nashrlar

OAK: <https://oak.uz/pages/4802>

05.00.00 – Texnika fanlari

08.00.00 – Iqtisodiyot fanlar



Google
Scholar

OPEN ACCESS

ULRICHSWEB™
GLOBAL SERIALS DIRECTORY

Academic
Resource
Index
ResearchBib

ISSN
INTERNATIONAL
STANDARD
SERIAL
NUMBER
INTERNATIONAL CENTRE

CYBERLENINKA

OpenAIRE


ROAD

INDEX COPERNICUS
INTERNATIONAL

BASE

Crossref

НАУЧНАЯ ЭЛЕКТРОННАЯ
БИБЛИОТЕКА
LIBRARY.RU



ISSN: 3060-463X

РЭУ.РФ
РОССИЙСКИЙ ЭКОНОМИЧЕСКИЙ УНИВЕРСИТЕТ
ИМЕНИ Г.В. ПЛЕХАНОВА
ТАШКЕНТСКИЙ ФИЛИАЛ



muhandislik & iqtisodiyot

ijtimoiy-iqtisodiy, innovatsion texnik,
fan va ta'limga oid ilmiy-amaliy jurnal

Elektron nashr, 2026-yil, aprel.

Bosh muharrir:

Zokirova Nodira Kalandarovna, iqtisodiyot fanlari doktori, DSc, professor

Bosh muharrir o'rinbosari:

Shakarov Zafar G'afarovich, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori, PhD, dotsent

Tahrir hay'ati:

Abduraxmanov Kalendar Xodjayevich, O'z FA akademigi, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Sharipov Kongratbay Avezimbetovich, texnika fanlari doktori, professor

Maxkamov Baxtiyor Shuxratovich, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Abduraxmanova Gulnora Kalandarovna, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Shaumarov Said Sanatovich, texnika fanlari doktori, professor

Turayev Bahodir Xatamovich, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Nasimov Dilmurod Abdulloyevich, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Allayeva Gulchexra Jalgasovna, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Arabov Nurali Uralovich, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Maxmudov Odiljon Xolmirzayevich, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Xamrayeva Sayyora Nasimovna, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Bobonazarova Jamila Xolmurodovna, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Irmatova Aziza Baxromovna, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Bo'taboyev Mahammadjon To'ychiyevich, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Shamshiyeva Nargizaxon Nosirxuja kizi, iqtisodiyot fanlari doktori, professor,

Xolmuxamedov Muhsinjon Murodullayevich, iqtisodiyot fanlari nomzodi, dotsent

Xodjayeva Nodiraxon Abdurashidovna, iqtisodiyot fanlari nomzodi, dotsent

Amanov Otabek Amankulovich, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent

Toxirov Jaloliddin Ochil o'g'li, texnika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)

Qurbonov Samandar Pulatovich, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)

Zikriyoyev Aziz Sadulloyevich, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)

Tabayev Azamat Zaripbayevich, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)

Sxay Lana Aleksandrovna, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent

Ismoilova Gulnora Fayzullayevna, iqtisodiyot fanlari nomzodi, dotsent

Djumaniyazov Umrbek Ilxamovich, iqtisodiyot fanlari nomzodi, dotsent

Kasimova Nargiza Sabitdjanovna, iqtisodiyot fanlari nomzodi, dotsent

Kalanova Moxigul Baxritdinovna, dotsent

Ashurzoda Luiza Muxtarovna, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)

Sharipov Sardor Begmaxmat o'g'li, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)

Tursunov Ulug'bek Sativoldiyevich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), dotsent

Bauyetdinov Majit Janizaqovich, Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti dotsenti, PhD

Botirov Bozorbek Musurmon o'g'li, Texnika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)

Sultonov Shavkatjon Abdullayevich, Kimyo fanlari doktori, (DSc)

Jo'raeva Malohat Muhammadovna, filologiya fanlari doktori (DSc), professor.

Yusupov Maxamadamin Abduxamidovich, iqtisodiyot fanlari nomzodi (DSc), professor

Kalonova Moxigul Baxritdinovna, iqtisodiyot fanlari nomzodi (PhD), dotsent

Mirzayev Kulmamat Djanzakovich, iqtisodiyot fanlari nomzodi (DSc), professor.

Karimova Nilufar Sadirdin qizi, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)

Norboyev Odil Abrayevich, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent

Nasimov Dilmurod Abdulloyevich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor

Mirzayev Kulmamat Djanzakovich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor

Karimova Nilufar Sadirdin qizi, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)

Pardaev Umidjon Uralovich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor

Xolmirzayev Ulug'bek Abdulazizovich, Iqtisodiyot fanlari doktori (DSc)

muhandislik & iqtisodiyot

ijtimoiy-iqtisodiy, innovatsion texnik,
fan va ta'limga oid ilmiy-amaliy jurnal

- 05.01.00 – Axborot texnologiyalari, boshqaruv va kompyuter grafikasi
- 05.01.01 – Muhandislik geometriyasi va kompyuter grafikasi. Audio va video texnologiyalari
- 05.01.02 – Tizimli tahlil, boshqaruv va axborotni qayta ishlash
- 05.01.03 – Informatikaning nazariy asoslari
- 05.01.04 – Hisoblash mashinalari, majmualari va kompyuter tarmoqlarining matematik va dasturiy ta'minoti
- 05.01.05 – Axborotlarni himoyalash usullari va tizimlari. Axborot xavfsizligi
- 05.01.06 – Hisoblash texnikasi va boshqaruv tizimlarining elementlari va qurilmalari
- 05.01.07 – Matematik modellash
- 05.01.11 – Raqamli texnologiyalar va sun'iy intellekt
- 05.02.00 – Mashinasozlik va mashinashunoslik
- 05.02.08 – Yer usti majmualari va uchish apparatlari
- 05.03.02 – Metrologiya va metrologiya ta'minoti
- 05.04.01 – Telekommunikatsiya va kompyuter tizimlari, telekommunikatsiya tarmoqlari va qurilmalari. Axborotlarni taqsimlash
- 05.05.03 – Yorug'lik texnikasi. Maxsus yoritish texnologiyasi
- 05.05.05 – Issiqlik texnikasining nazariy asoslari
- 05.05.06 – Qayta tiklanadigan energiya turlari asosidagi energiya qurilmalari
- 05.06.01 – To'qimachilik va yengil sanoat ishlab chiqarishlari materialshunosligi
- 05.08.03 – Temir yo'l transportini ishlatish
- 05.08.06 – "G'ildirakli va gusenisali mashinalar va ularni ishlatish" (texnika fanlari)
- 05.09.01 – Qurilish konstruksiyalari, bino va inshootlar
- 05.09.04 – Suv ta'minoti. Kanalizatsiya. Suv havzalarini muhofazalovchi qurilish tizimlari
- 10.00.06 – Qiyosiy adabiyotshunoslik, chog'ishtirma tilshunoslik va tarjimashunoslik
- 10.00.04 – Yevropa, Amerika va Avstraliya xalqlari tili va adabiyoti
- 08.00.01 – Iqtisodiyot nazariyasi
- 08.00.02 – Makroiqtisodiyot
- 08.00.03 – Sanoat iqtisodiyoti
- 08.00.04 – Qishloq xo'jaligi iqtisodiyoti
- 08.00.05 – Xizmat ko'rsatish tarmoqlari iqtisodiyoti
- 08.00.06 – Ekonometrika va statistika
- 08.00.07 – Moliya, pul muomalasi va kredit
- 08.00.08 – Buxgalteriya hisobi, iqtisodiy tahlil va audit
- 08.00.09 – Jahon iqtisodiyoti
- 08.00.10 – Demografiya. Mehnat iqtisodiyoti
- 08.00.11 – Marketing
- 08.00.12 – Mintaqaviy iqtisodiyot
- 08.00.13 – Menejment
- 08.00.14 – Iqtisodiyotda axborot tizimlari va texnologiyalari
- 08.00.15 – Tadbirkorlik va kichik biznes iqtisodiyoti
- 08.00.16 – Raqamli iqtisodiyot va xalqaro raqamli integratsiya
- 08.00.17 – Turizm va mehmonxona faoliyati

Ma'lumot uchun, OAK
Rayosatining 2024-yil 28-avgustdagi 360/5-son qarori bilan "Dissertatsiyalar asosiy ilmiy natijalarini chop etishga tavsiya etilgan milliy ilmiy nashrlar ro'yxati"ga texnika va iqtisodiyot fanlari bo'yicha "Muhandislik va iqtisodiyot" jurnali ro'yxatga kiritilgan.

Muassis: "Tadbirkor va ishbilarmon" MChJ

Hamkorlarimiz:

1. Toshkent shahridagi G.V.Plexanov nomidagi Rossiya iqtisodiyot universiteti
2. Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti
3. Toshkent irrigatsiya va qishloq xo'jaligini mexanizatsiyalash muhandislari instituti" milliy tadqiqot universiteti
4. Islom Karimov nomidagi Toshkent davlat texnika universiteti
5. Muhammad al-Xorazmiy nomidagi Toshkent axborot texnologiyalari universiteti
6. Toshkent davlat transport universiteti
7. Toshkent arxitektura-qurilish universiteti
8. Toshkent kimyo-texnologiya universiteti
9. Jizzax politexnika instituti



MUNDARIJA

STRATEGIC INTEGRATION OF BUSINESS PLANNING AND FORECASTING IN INDUSTRIAL ENTERPRISES.....	11
Sharipov K.A., Ismatullayev T.R.	
ВКЛАД БАНКОВСКОЙ СИСТЕМЫ В СОЦИАЛЬНО-ЭКОНОМИЧЕСКОЕ РАЗВИТИЕ МАХАЛЛЕЙ РЕСПУБЛИКИ КАРАКАЛПАКСТАН: МЕХАНИЗМЫ, ДИНАМИКА И СТРАТЕГИЧЕСКИЕ ОРИЕНТИРЫ	21
Бабаназарова Гульзар Зиуатдиновна	
BUDJET TASHKILOTLARIDA XARAJATLARNI REJALASHTIRISH VA MOLYAVIY NAZORATNI TASHKIL ETISH.....	27
Karayev Payzillaxon Yusufxonovich	
FERMER XO'JALIKLARINI MOLYAVIY QO'LLAB-QUVVATLASHDA SUBSIDIYA AMALIYOTINI TAKOMILLASHTIRISH.....	32
Xakimov Zafar Ibragimovich	
IQTISODIY O'SISHGA ERISHISHDA DAVLAT INNOVATSION VA INVESTITSION SIYOSATINING O'RNI	38
Xaydarova Yorqinoy Asqar qizi	
QURILISH SANOATIDA KORXONALARNI MOLYALASHTIRISHNING NAZARIY KONSEPSIYALARI VA ZAMONAVIY YONDASHUVLARI.....	44
Igitov Jurabek Kuzibekovich	
ОСОБЕННОСТИ ВЫБОРА СТРАТЕГИИ РАЗВИТИЯ ПРЕДПРИЯТИЙ МЕТАЛЛУРГИЧЕСКОГО КОМПЛЕКСА	50
Абдуллаева Матлуба Нематовна, Акбарова Муфаррах Мухитдиновна	
СОВЕРШЕНСТВОВАНИЕ СИСТЕМЫ КОМПАЕНС-КОНТРОЛЯ В КОМПАНИЯХ С ГОСУДАРСТВЕННЫМ УЧАСТИЕМ В УЗБЕКИСТАНЕ	56
Халтурдиев Айтмурат Маратович	
O'ZBEKISTONDA RAQAMLI IQTISODIYOTNING ICHKI BELGILARI	64
Saatova Lolaxon Ergashevna	
INNOVATSION YONDASHUVLAR ASOSIDA OZIQ-OVQAT KORXONALARIDA RAQOBATBARDOSHLIKNI OSHIRISH MEKANIZMLARI	71
Pulatov Abdullo	
MAJBURIY IJRO ETISH CHORALARINI TAKOMILLASHTIRISH: MILLIY VA XORIJIY TAJRIBA.....	76
Axmedov Zafarjon Zokirjon	
МОДЕЛЬ ИНТЕГРИРОВАННОЙ СИСТЕМЫ ESG-ТРАНСФОРМАЦИИ И ЭКОНОМИЧЕСКИЕ МЕХАНИЗМЫ ЕЁ РЕАЛИЗАЦИИ НА ПРЕДПРИЯТИИ ПО ПРОИЗВОДСТВУ ПОЛИМЕРНОЙ УПАКОВКИ	80
Ташпулатов Дильмурад Рустамович	
KORPORATIV KORXONALARDA KAPITALNI BUDJETLASHTIRISH JARAYONINI TAKOMILLASHTIRISH YO'LLARI.....	85
Latipova Shaxnoza Maxmudovna	
INNOVATSION MENEJMENTDA KOMMUNIKATSIYA VA TASHKILIY MOSLASHUVCHANLIKNING ROLI: O'ZBEKISTON SHAROITI MISOLIDA	92
Atamatov Abdusalil Salomovich	
QAYTA TIKLANUVCHI ENERGIYA MANBALARINING AHAMIYATI VA UNING SALOHİYATINI BELGILOVCHI OMILLAR	97
Qodirov Baxodir Tursunovich, To'rayev Qaxramon Zokirjonovich	



NAMANGAN VILOYATIDA AYOLLAR TADBIRKORLIK FAOLIYATINI RIVOJLANTIRISHDA TADBIRKORLIK MUHITINI BAHOLASH	103
Raximova Moxigul Isroiljonovna	
O'ZBEKISTON IQTISODIYOTIGA TO'G'RIDAN-TO'G'RI XORIJIY INVESTITSİYALARNI JALB ETISH BILAN BOG'LIQ MUAMMOLAR VA ULARNI BARTARAF ETISH YO'LLARI	107
Davitova Shaxzoda Doniyor qizi	
ANALYSIS OF THE FORMATION OF MARKET DEMAND AND THE ESTABLISHMENT OF EQUILIBRIUM IN A MARKET ECONOMY	112
Kamilova Nargiza	
BO'LAJAK FIZIKA O'QITUVCHILARINI NANOTEXNOLOGIYA SOHASIDAGI BILIMLARNI TAQDIM ETISHGA VA O'QITISHGA TAYYORLASH METODIKASI	115
Sottarov Abdulvali Umirqulovich	
INTEGRATING AI INTO STRATEGIC MANAGEMENT IN HIGHER EDUCATION INSTITUTIONS	120
Uktamova Durdona Bakhtiyor qizi, Sultonali Umaraliyevich Mekhmonov	
BARQAROR RIVOJLANISH SHAROITIDA IJTIMOIIY HISOBOTLAR VA ULARNING AHAMIYATI	130
Sayfullayev Mexroj Sayfullayevich	
SANOAT KLASSTERINING IQTISODIY SAMARADORLIGINI BAHOLASHNING USLUBIY JIHATLARI.....	135
Satvoldiyev Ulugbek Kamilovich	
RAQAMLI TRANSFORMATSIYA SHAROITIDA TIJORAT BANKLARI LIKVIDLIGINI BOSHQARISHNI TAKOMILLASHTIRISHNING INNOVATSION YONDASHUVLARI	140
Yangiboev Rustam Berdiyarovich	
MINTAQA IQTISODIY O'SISH DRAYVERLARINI RIVOJLANTIRISHDA MOLIYAVIY XAVFLARNI BOSHQARISH MEKANIZMLARI.....	145
Turopova Nigora Xolmurod qizi	
ЭКОЛОГИЯ ТУРИСТА КАК МЕТОД СОЗДАНИЯ КОМФОРТНОЙ И УСТОЙЧИВОЙ СРЕДЫ ДЛЯ ПУТЕШЕСТВЕННИКОВ.....	149
Наурызбаев Алиакбар Рустамович	
BINO VA INSHOOTLARNI BARPO ETISHDA PREFABRIKATSIYALASHGAN HAMDA MODULLI QURILISH TIZIMLARINI AQLLI BOSHQARUV ASOSIDA TAKOMILLASHTIRISH	152
Solijonov Javoxirmirzo Obidjon o'g'li	
RAQAMLI TRANSFORMATSIYA SHAROITIDA AKSIYADORLIK TIJORAT BANKLARIDA KORPORATIV BOSHQARUVNI XALQARO STANDARTLAR ASOSIDA TAKOMILLASHTIRISH	163
Saidaxmedova Aida Mirzayevna	
O'ZBEKISTONDA KO'CHAT YETISHTIRISHNING HOZIRGI HOLATI VA RIVOJLANISH TENDENSIYALARI	169
Abdufarmonov Farrux Faxriddinovich	
O'ZBEKISTONDA EKSPORTGA YO'NALTIRILGAN QISHLOQ XO'JALIGI MAHSULOTLARI SIFATI VA XALQARO STANDARTLARGA MUVOFIQLIGI TAHLILI	174
Safarova Muxabbat Radjabovna	
TIJORAT BANKLARI DEPOZIT SIYOSATI VA DEPOZIT BAZASI DINAMIKASINING BANK LIKVIDLIGIGA TA'SIRI	178
Sulaymanov Samandarboy Adhambek o'g'li	
RAQAMLI IQTISODIYOT SHAROITIDA ISLOMIY MOLIYANING BANK TIZIMIGA INTEGRATSIYASI: MUAMMOLAR, IMKONIYATLAR VA TRANSFORMATSIYA YO'NALISHLARI	186
Adilov Zuxriddin Marip o'g'li	
SAMARQAND VILOYATI SANOATINING HUDUDIIY TARKIBINI TAKOMILLASHTIRISHNING AYRIM MASALALARI.....	190
Uralov Eliboy Omonovich	



DIVERSIFIKATSIYALASHUV ASOSIDA QURILISH TARMOG'I RIVOJLANISHINI KO'P OMILLI BOG'LANISHLAR ASOSIDA MODELLASHTIRISH.....	194
Yembergenova Aynur Aydosbaevna	
ЩЕБЕНОЧНО-МАСТИЧНЫЙ АСФАЛЬТОБЕТОН В КИТАЕ: СОСТАВ, СВОЙСТВА, ИННОВАЦИИ И ПЕРСПЕКТИВЫ РАЗВИТИЯ.....	201
Карабаев Абдужаббор Мелиевич, Занг Хайфей	
TADBIRKORLIK FAOLIYATIDA SUBYEKTIV RISKNI SHAKLLANTIRUVCHI KOGNITIV OMILLAR VA ULARNI BOSHQARISH MEKANIZMLARI	205
Abduxamid Abdumalikovich Bektemirov	
HOMILADOR AYOLLAR UCHUN MAXSUS KIIYIMLARNI LOYIHALASHDA ISTE'MOLCHILAR TALABLARINI O'RGANISH	211
D.Sattarova, U.Vakhidova, D.Madiyarovna	
O'ZBEKISTON RESPUBLIKASIDA AHOLI DAROMADLARIGA TA'SIR ETUVCHI STATISTIK INDIKATORLAR TIZIMINING METODOLOGIK ASOSLARI VA ULARNING TAHLILIIY IMKONIYATLARI	217
Atayev Jaxongir Erkinovich	
KICHIK BIZNES INVESTITSION KREDITLARINI TIJORAT BANKLARI TOMONIDAN MOLIYALASHTIRISH	221
M.O.Yuldoshova	
HUDUDNING "YASHIL IQTISODIYOT" ASOSIDA RIVOJLANISHINI TADQIQ ETISH: KO'RSATKICHLAR TIZIMI VA BAHOLASH USULLARI	226
Shomirzayev Abdug'affor Abdujabbor o'g'li	
O'ZBEKISTONDA SUV XO'JALIGI TIZIMIDAGI QAYTA TIKLANUVCHI HAVZALAR	231
To'rayev Rasul Nortoijevich, Seytov Aybek Jumabayevich, Uteuliyev Niyatbay Uteuliyevich, Haydarova Roziya Davronovna	
KORXONALAR IQTISODIY BARQARORLIGINING NAZARIY MODELLARI VA SINERGETIK YONDASHUV ASOSIDA BAHOLASH MEKANIZMLARI	236
Iminova Nargizaxon Akramovna	
TIJORAT BANKLARINING INVESTITSIIYA SIYOSATI VA QIMMATLI QOG'OZLAR PORTFELINI BOSHQARISH STRATEGIYALARI	241
Abduvaliyev Sanjar Abdurahmonovich	
PAXTA VA MEVA-SABZAVOT YETISHTIRUVCHI FERMERLARDA TAVAKKALCHILIK XULQ-ATVORINING QIYOSIIY TAHLILI: ISTIQBOL NAZARIYASI ASOSIDA.....	249
Tadjiyev Abdusame Abduhamidovich	
ФОРМИРОВАНИЕ МАРКЕТИНГОВОЙ СТРАТЕГИИ ОБРАЗОВАТЕЛЬНОЙ ОРГАНИЗАЦИИ В СОВРЕМЕННЫХ УСЛОВИЯХ	253
Алиев Абдулазиз Исмаилович, Кахрамонова Азиза Шухрат кизи	
QQS TIZIMI SAMARADORLIGINI XALQARO INDIKATORLAR ASOSIDA BAHOLASH	259
Eshkarayev Bobir Chariyevich	
QISHLOQ XO'JALIGIDA OZIQ-OVQAT XAVFSIZLIGINI TA'MINLASHNING INNOVATSION USULLARI	265
Tadjimirzayev Anvar Abduvoxidovich, Batirova Raxima Abdujabborovna	
O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI TIJORAT BANKLARIDA KREDIT RISKINI BOSHQARISH MEKANIZMINING AMALIY TAHLILLARI.....	273
Hamroyev Sherzod Axtamovich	
ПРОГНОЗИРОВАНИЕ ПОТРЕБИТЕЛЬСКОГО СПРОСА С ИСПОЛЬЗОВАНИЕМ МЕТОДОВ МАШИННОГО ОБУЧЕНИЯ В РОЗНИЧНОЙ ТОРГОВЛЕ УЗБЕКИСТАНА	280
Тен Марина Владимировна	
O'ZBEKISTON SANOATIDA MAHALLIYLASHTIRISH DASTURLARINING IMPORT O'RNINI BOSISHDAGI SAMARADORLIGI TAHLILI	287
Sobitova Ra'no Solidjonovna	



NEFT-GAZ LOYIHALARIDA DAVLAT VA INVESTOR MANFAATLARINI MUVOFIQLASHTIRISHNING FISKAL-BOJXONA MEXANIZMLARI.....	290
Mansurov Obid Zaynidinovich	
QURILISH KORXONALARI FAOLIYAT SAMARADORLIGINI BAHOLASH INSTRUMENTLARI	296
Yahyoyev To'liq Ismatulla o'g'li	
QASHQADARYO VILOYATIDA TURIZMNI RIVOJLANTIRISHDA TRANSPORT INFRATUZILMASINING TA'SIRI.....	300
Jahongir Ruziboyevich Qosimov, Narzullayeva Charos	
O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI TIJORAT BANKLARIDA KREDIT PORTFELINING SEKTORLAR KESIMIDAGI RISKLARI VA ULARNI TAKOMILLASHTIRISH YO'LLARI.....	306
Norova Nozima Nabiyeвна	
AVTOMOBIL SANOATI KORXONALARIDA BREND STRATEGIYASINI BOSHQARISHNING ZAMONAVIY MODELLARI.....	312
Boboyev L Kadruxa Djuraxodjayevich	
HUDUD EKSPORT SALOHİYATINI STATISTIK TADQIQ ETISHDA RCA INDEKSIDAN FOYDALANISH.....	318
Xurramov Ramazon Allayor o'g'li	
СОВРЕМЕННЫЕ КОНЦЕПЦИИ И ТЕНДЕНЦИИ РАЗВИТИЯ УПРАВЛЕНИЯ СТРАТЕГИЕЙ БРЕНДОВ В АВТОМОБИЛЬНОЙ ПРОМЫШЛЕННОСТИ	325
Бобоев Л Кадруха Джураходжаевич	
HUDUDLARDA UY-JOY QURILISHI JARAYONINI TASHKIL ETISHNING QONUNIYATLARI VA TAMOIYILLARI.....	331
Usmanov Mirumar Abdulla o'g'li	
OYNALI FASAD TIZIMLARINI MONTAJ QILISHNING ZAMONAVIY TEXNOLOGIYALARI	339
Inamov Boxodir Nizamovich, Ozodxo'jayev G'aybulla Sherzodxo'ja o'g'li	
KLASSIK SHIFRLASH ALGORITMLARINING XUSUSIYATLARINI NEYRON TARMOQ ORQALI O'RGANISH.....	344
Davlatov Mirzo-Ulug'bek Bobir o'g'li, Allanov Orif Menglimuratovich, Turdibekov Baxtiyor Baxodir o'gli	
АЛГОРИТМ АДАПТАЦИИ ПАРАМЕТРОВ СИСТЕМ ИДЕНТИФИКАЦИИ ДИНАМИЧЕСКИХ ОБЪЕКТОВ.....	350
Сидиков Исамиддин Хакимович, Алимова Гулчехра Рахимжоновна, Ибрагимов Беговот Шералиевич	
ELEKTRON HUKUMATNING BARQAROR RIVOJLANISHI: QOZOG'ISTON VA O'ZBEKISTON TAJRIBASINING QIYOSIY TAHLILI.....	355
Umarova Durdona Abdumannabovna	
UY-JOY FONDI BOSHQARUVINING TASHKILIY-IQTISODIY MEXANIZMLARINI TAKOMILLASHTIRISH.....	360
Aminova Naima Umar qizi	
RAQAMLI IQTISODIYOT RIVOJI VA UNI TARTIBGA SOLISHDA MUVOZANATLI REGULYATIV SIYOSAT YURITISH.....	365
Davlatov Ulug'bek Baxodirovich	
HUDUDIY SANOAT ISHLAB CHIQARISHNI INNOVATSION RIVOJLANTIRISH TENDENSIYALARI	370
Avliyaqulov Xudoyberdi	
O'ZBEKISTONDA AHOLINI UY-JOY BILAN TA'MINLASH DASTURLARIDA MAVJUD MUAMMOLAR.....	374
Xannarov Komiljon Karimovich	



O'ZBEKISTONDA AHOLINI UY-JOY BILAN TA'MINLASH DASTURLARIDA MAVJUD MUAMMOLAR

Xannarov Komiljon Karimovich

O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi xodimi, PhD

ORCID: 0009-0001-0447-7397

xannarov.k@gov.uz

Annotatsiya. Mazkur maqolada O'zbekistonda aholini uy-joy bilan ta'minlashga qaratilgan davlat dasturlarining amalga oshirilishi va ularda yuzaga kelayotgan muammolar tahlil qilingan. Xususan, uy-joy qurilishining moliyalashtirilishi, ipoteka kreditlari tizimidagi kamchiliklar, aholining to'lov qobiliyati bilan bog'liq muammolar hamda hududlar kesimidagi nomutanosibliklar o'rganilgan. Tadqiqot natijasida mavjud muammolarni bartaraf etish va uy-joy siyosatini takomillashtirish bo'yicha amaliy taklif va tavsiyalar ishlab chiqilgan.

Kalit so'zlar: uy-joy dasturlari, ipoteka tizimi, davlat siyosati, uy-joy muammolari, moliyalashtirish, hududiy tafovutlar, ijtimoiy himoya, aholi daromadlari.

Abstract. This article analyzes the existing challenges in housing provision programs in Uzbekistan. In particular, it examines issues related to financing housing construction, shortcomings in the mortgage system, affordability problems among the population, and regional disparities. Based on the findings, practical recommendations are proposed to address these challenges and improve housing policy.

Keywords: housing programs, mortgage system, state policy, housing challenges, financing, regional disparities, social protection, household income.

Аннотация. В данной статье анализируются существующие проблемы в программах обеспечения населения жильём в Узбекистане. В частности, рассматриваются вопросы финансирования жилищного строительства, недостатки ипотечной системы, проблемы платежеспособности населения, а также региональные диспропорции. По результатам исследования предложены практические рекомендации по устранению данных проблем и совершенствованию жилищной политики.

Ключевые слова: жилищные программы, ипотечная система, государственная политика, жилищные проблемы, финансирование, региональные различия, социальная защита, доходы населения.

KIRISH

O'zbekistonda aholini uy-joy bilan ta'minlashda qator yutuqlar bilan birga ayrim murakkabliklarni ham kuzatish mumkin. Bu esa, aholini turar-joy bilan ta'minlashdagi nobarqarorlikni vujudga kelishiga olib kelmoqda. Hozirgi kunda aholini uy-joy bilan ta'minlashda huquqiy asoslar va islohotlarning tizimli amalga oshirilishi kuzatilayotgan bo'lsada, ushbu jarayonlarni tartibga solish yuzasidan davlat vakolatli organlarining faoliyati muhim ahamiyat kasb etadi.

Bizningcha, aholini uy-joy bilan ta'minlashda qator tizimli murakkabliklarni kuzatish mumkin. Ular sirasiga quyidagilarni kiritish maqsadga muvofiq, deb o'ylaymiz.

Birinchidan, respublikada aholini uy-joy bilan ta'minlash siyosatini yuritish va qabul qilinayotgan dasturlar amalga oshirilishini muvofiqlashtiruvchi davlat vakolatli organining tashkil etilmaganligi.

Ikkinchidan, davlat byudjetidan moliyalashtiriladigan ipoteka dasturlarini davlat maqsadli jamg'armasi shaklida tashkil etish, uning mablag'lari hisobidan foiz stavkalarini boshqarishga qaratilgan choralarni amalga oshirishga bo'lgan ehtiyojning mavjudligi.



Uchinchidan, mamlakatdagi uy-joy bozorini xususiy pudratchilar tomonidan qurilishini inobatga olib, ko'chmas mulk bozorida spekulyatsion vaziyatni yumshatish zarurati.

To'rtinchidan, aholining kam daromadli qatlami uchun uy-joy bilan ta'minlash dasturlarining to'liq joriy etilmaganligi. Bunda hududlar kesimida uy-joylar narxining farqlanishiga mos ravishda subsidiya dasturlarini takomillatirish zaruratining saqlanib qolayotganligi.

Tadqiqotlarimiz asosida yuqorida qayd etilgan holatlarni batafsil yoritishga qaratilgan ilmiy xulosalarimizni asoslashga harakat qilamiz..

MAVZUGA OID ADABIYOTLAR TAHLILI

Aholini uy-joy bozori bilan ta'minlashda davlat vakolatli organining faoliyat olib borishini nazarda tutish. Bu borada, ayrim mamlakatlarning tajribalarini keltirib o'tish joiz deb o'ylaymiz.

Masalan, Turkiya davlatida TOKI (Toplu Konut İdaresi) kompaniyasi faoliyat olib boradi. Ushbu kompaniya 1984 yilda tashkil etilgan bo'lib, mamlakatdagi uy-joy qurilishi va shaharsozlik masalasidagi ustuvorliklarni amalga oshirish bilan shug'ullanib keladi. Uning uy-joy masalasidagi asosiy vazifalaridan biri o'rta va kam daromadli aholi qatlamini ijtimoiy dasturlar orqali tura-joy bilan ta'minlashga qaratilgan vazifalarni bajarish bilan ajralib turadi.

Umuman olganda, TOKI tashkilotining asosiy faoliyat yo'nalishlari sifatida quyidagilarni keltirish mumkin:

Norasmiy uy-joylar va massivlarni qayta tiklash va ularni transformatsiya qilishga qaratilgan tadbirlarni amalga oshirish.

Aholining kam daromadli qatlamini uy-joy bilan ta'minlashga yo'naltirilgan ijtimoiy loyihalarni amalga oshirish.

Katta bo'lmagan turar joy massivlarini qurish va foydalanishga qaratilgan ishlarni amalga oshirish.

Tarixiy joylar va mahalliy me'morchilik namunalari aks ettirgan ob'ektlarni rivojlantirish.

Ijtimoiy infratuzilma ob'ektlarini qurish

Favqulodda holatlardan keyin turar-joy massivlariga etkazilgan zararlarni bartaraf etish ishlarini amalga oshirish.

Fikrimizcha, TOKI tashkiloti Turkiyada aholini uy-joy bilan ta'minlashda asosiy davlat vakolatli organi bo'lib qolmoqda. Shuningdek, ushbu tashkilot ijtimoiy infratuzilma ob'ektlarini rivojlantirishga qaratilgan ustuvorliklarni ham amalga oshirish bilan ajralib turganligini ta'kidlash lozim. Umuman olganda, ushbu tashkilot notijorat mulkchilik shakliga ega bo'lib, davlat byudjeti mablag'lari hisobidan moliyalashtiriladigan manbalarga ega.

2002 yildan buyon TOKI tashkiloti Turkiyaning 81 provinsiyasida 1 mln.dan ortiq uy-joylarni foydalanishga topshirgan bo'lib, ularning 87 foizi ijtimoiy xususiyatga ega bo'lgan turar joylardir .

B.Tantan va boshqalar tomonidan birgalikda olib borilgan tadqiqotda TOKI kompaniyasining aholini uy-joy bilan ta'minlashdagi rolini baholashga qaratilgan. Ularning fikricha, aholini uy-joy bilan ta'minlash borasida davlat investisiya faoliyati alohida ahamiyatga ega bo'lsada, xususiy sektorning ulushi yuqoriligidan qolayotganligini ta'kidlab o'tadi[1].

B.Usmonov o'zining tadqiqotida aholi turmush farovonligini ta'minlashda uy-joy bilan ta'minlanganlik darajasiga e'tibor qaratib o'tadi . Uning fikricha, ijtimoiy himoyani amalga oshirishda kam daromadli oilalarning uy-joy bilan ta'minlanganlik darajasi muhim ahamiyatga ega ekanligini ta'kidlab o'tadi. Oilalarga ijtimoiy himoya mablag'larini yo'naltirishda ularning farzandlar soni bilan birga, ijara uyda yashashini ham inobatga olish zarurligini ta'kidlab o'tadi. Shuningdek, bir kishi to'g'ri keluvchi yashash maydoni nuqtai nazaridan ijtimoiy himoya elementlarini yanada takomillashtirishga e'tibor berishni taklif etadi[2].

N.Primova davlat byudjeti mablag'laridan foydalanishda natijaga yo'naltirilgan byudjetlashtirish amaliyotidan foydalanishni tahlil etadi . Uning fikricha, kam ta'minlangan oilalarga davlat byudjetidan ijaraga beriladigan uylar to'lovlarini to'lash, sotib olishda subsidiyalash amaliyotini rivojlantirish kabi jihatlarni ta'kidlab o'tadi[3].

R.Sattarov esa mintaqaviy ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishni ta'minlashda viloyatlararo hamkorlikning muhim ahamiyatga ega ekanligini ta'kidlab o'tadi. Uning xulosasida viloyatlararo hamkorlikni rivojlantirishda uy-joy va infratuzilma qurilishini amalga oshirish nuqtai-nazaridan o'ziga xos yo'nalish ekanligi asoslashga harakat qilinadi[4].

TADQIQOT METODOLOGIYASI

Tadqiqot jarayonida tahlil va sintez, induksiya va deduksiya, statistik guruhlash, ekspert baholash, ilmiy abstraksiyalash va boshqa usullardan keng foydalanildi.

TAHLIL VA NATIJALAR

Bizningcha, mamlakatda turar-joy majmualarini qurish va unda aholining kam daromadli qatlamini qamrab olishni nazarda tutish bilan bog'liq dasturlarni amalga oshirish muhim bo'lmoqda. Shu nuqtai nazardan, davlat vakolatli organi faoliyatini ifoda etadigan ustuvorliklarni belgilash maqsadga muvofiq hisoblanadi.

Shu bilan birga, Evropaning etakchi davlatlaridan biri Fransiya tajribasi ham e'tiborga molik ekanligini ta'kidlash lozim. Ushbu mamlakatda aholini uy-joy bilan ta'minlash masalalari bilan shug'ullanuvchi asosiy davlat organi «Fransiya milliy uy-joy agentligi» (Agence Nationale de l'Habitat, ANAH) bo'lib hisoblanadi. Fransiya hukumati tarkibida bo'lgan mazkur tashkilot aholining uy-joy sharoitlarini sifatini oshirish, ularni ta'mirlash hamda energiya samaradorligini oshirish kabi ustuvorliklarni o'zida aks ettiradi. Ushbu tashkilotning asosiy faoliyat yo'nalishlaridan biri mamlakatda uy-joy bozorini rivojlantirish va aholining kam daromadli qatlamini uy-joy sharoitlarini yaxshilashga qaratilgan tadbirlarni amalga oshirish hisoblanadi.


Uning asosiy faoliyat yo'nalishlari sifatida quyidagilarni keltirish mumkin:

Birinchidan, kam daromadli aholi qatlami uy-joyi sifatini yanada oshirish va uning ta'mirlash bilan bohliq ishlarni amalga oshirish va modernizatsiya qilish ishlarini olib borishni o'zida ifoda qiladi.

Ikkinchidan, uy-joylarning energiya samaradorligini oshirishga qaratilgan ishlarni amalga oshirish. Bunda energiya tejamkor texnologiyalarni rag'batlantirishni moliyalashtirishga ustuvorlik berilganligini ta'kidlash lozim.

Uchinchidan, ijara bozorida faol ishtirok etadi. Mulkdorlarga shaxsiy ko'chmas mulklarini ijara berishlari jarayonlaridaxizmat ko'rsatuvchi bo'lib faoliyat olib boradi.

To'rtinchidan, ijtimoiy himoya dasturlarini amalga oshirishda davlat byudjetidan moliyalashtiriladigan turli subsidiya dasturlarini tartibga solish ishlarini olib boradi. Bu bilan aholining kam daromadli qismini qo'llab-quvvatlashga imkoniyat berishini nazarda tutadi (1-rasm).




1-rasm. Fransiyada yosh kesimida uy-joyi ijaraga olish tendensiyasi

1-ma'lumotlaridan ko'rinib turibdiki, Fransiyada turar joy ijarasi munosabatlarining rivojlanishida davlatning roli o'zgaras va barqaror tendensiyaga ega bo'lmoqda. Ayniqsa, aholining yoshi ortib borishi bilan xususiy sektordan turar joyi ijaraga olish kamayib va o'z egaligidagi uylar ulushi ortib borayotganligi ko'zga tashlanai. Biroq, davlatning bu boradagi roli barqaror va ishonchli ahamiyatga ega bo'layotganligini ta'kidlash lozim.

Bizningcha, turar joyning yoshlar, ayniqsa yosh va kam daromadli oilalarni qo'llab-quvvatlash nuqtai nazaridan davlat uy-joylarini ijaraga berish amaliyotini rivojlantirish muhim ahamiyatga ega bo'lmoqda. Shu boisdan, kam daromadli aholi qatlami uchun ijaraga berishga mo'ljallangan uy-joy fondinii shakllantirishga e'tibor qaratish maqsadga muvofiq hisoblanadi.

Aholini uy-joy bilan ta'minlashda davlat vakolatli organi huzurida davlat maqsadli jamg'armasiing tashkil etilishibilan ipoteka bozoridagi foiz stavkalarini tartibga solishga erishish. Ma'lumki, uy-joylar sotib olishda ipoteka krediti amaliyoti muhim ahamiyatga ega hisoblanadi. Bu borada, Fransiya tajribasini tahlil qilib o'tishimiz mumkin (2-rasm).



2-rasm. Fransiyada ipoteka krediti foiz stavkasi

2-rasmdan ko'rish mumkinki, 2021-yilning so'nggiga kelib ipoteka krediti foiz stavkasi o'zining eng past darajasiga etgan. Buning asosiy sabablaridan biri pandemiya davridan so'ng uy-joy bozorida sovush kuzatilgan bo'lsa, boshqa jihatdan davlat moliyaviy jamg'armasining ham roli mavjud bo'lganligini qayd etish lozim. Shunday bo'lsada, 2022-yildan boshlab uy-joy bozorida yana qizish boshlanganligini kuzatish mumkin.

O'zbekiston Respublikasida ipoteka kreditlari tashqi qarzlarni hisobiga jalb etiladigan mablag'larning yillik foiz stavkalariga bog'liq bo'lib, ipoteka kreditlari foizlari (17-22 foiz) balandligicha qolmoqda.

Aholini uy-joy bilan ta'minlash dasturlari tizimlashtirilgan davlatlarda milliy jamg'armalar mavjud bo'lib, davlat uy-joy qurilishini moliyalashtirish foizlari orqali boshqarib boradi.

Fransiyada uy-joy bozorida ipoteka krediti foiz stavkasining kamaytirilishiga erishish qator yondashuvlar joriy etilganligini ta'kidlash lozim. Jumladan:

Uy-joy hisob raqami (Plan épargne logement) aholiga tura joy sotib olishda mablag'lar jamg'arishga rham beradi. Shuningdek, ushbu jamg'arma orqali past foizli stavkalarda ipoteka kreditini taqdim qilishga xizmat qiladi.

Nol foizli ipoteka krediti siyosati. Ushbu dastur hukumat tomonidan joriy etilgan bo'lib, ijtimoiy siyosat doirasida kam daromadli aholi qatlamiga uy-joy xarid qilishda foizsiz ipoteka kreditlarini taqdim etishga xizmat qiladi. Bunda asosiy e'tibor yangi qurib bitkazilgan turar joylarga qaratiladi.

Pay jamg'armasi shaklidagi jamg'arma. Bunda ish beruvchi va xodim o'rtasida o'zaro kelishuv asosida uy-joy xarid qilishga yordam berish nazarda tutiladi. Ushbu dastur orqali ipoteka kreditiga mablag' yo'naltirish yoki ijara to'lovlarini amalga oshirishga xizmat qiladi va ish beruvchilar tomonidan moliyalashtiriladi.

Umuman olganda, aholini uy-joy bilan ta'minlashda davlat maqsadli jamg'armasini va boshqa turdosh dasturlarni amalga oshirishda quyidagilarga e'tibor qaratish maqsadga muvofiq hisoblanadi.

Birinchidan, foiz stavkalarini pasaytirishda davlat mablag'laridan foydalanish va ushbu faoliyatga doir jamg'armaga aholining bo'sh turgan mablag'larini jalb qilish amaliyotini rivojlantirish. Bunda aholining jamg'armalarini ipoteka kreditlari maqsadida ishlatilishiga erishish uchun shart-sharoit vujudga keladi.

Ikkinchidan, nafaqat davlat tomonidan uy-oy bilan ta'minlash amaliyotini rivojlantirish, balki ijara to'lovlarini ham moliyalashtirishga qaratilgan tizimli tadbirlarni ishlab chiqish maqsadga muvofiq hisoblanadi. Bunda ijara to'lovlarini to'lashda aholini ijtimoiy himoya va daromad nuqtai nazaridan tasniflarga ajratish muhim hisoblanadi.

Uchinchidan, aholining ipoteka qarz majburiyatlarini kafolatlash uchun ish beruvchilarning imkoniyatlaridan foydalanish. Bunda ish beruvchilar tomonidan ipoteka kreditini moliyaviy kafolatlashini joriy etishga qaratilgan huquqiy va iqtisodiy asoslarni yaratish muhim ahamiyatga ega hisoblanadi.

To'rtinchidan, ipoteka foiz stavkalarini suzib yuruvchi va qat'iy foiz stavkasi tarzida shakllantirilishiga imkoniyat yaratish. Bunda inflyasion tendensiyalarni e'tiborga olgan holda foiz stavkalarini tebranish chegaralarini joriy e'itshga imkoniyat yaratish maqsadga muvofiq hisoblanadi.

O'zbekiston Respublikasi uy-joy qurilishi dasturlari xususiy pudrat tashkilotlari mablag'lari hisobiga amalga oshirilishi hisobiga sohada yashirin iqtisodiyot ulushi yuqoriligicha qolayotganligi ham ayrim o'zgarishlarni amalga oshirishga bo'lgan zaruratni ko'rsatib beradi.


Qayd etish lozim, Fransiya tajribasida mamlakatda xususiy pudratchilar tomonidan qurilgan har bir ko'p qavatli uy-joyning 30 foizigacha qismi davlat maqsadli jamg'armasi tomonidan xususiy quruvchidan oldindan belgilangan narx asosida sotib olinadi. Narxlar to'g'risidagi ma'lumotlar notarial va soliq bazasiga kiritiladi. Shuningdek, xususiy pudrat tashkilotlari tomonidan belgilangan kvotadagi uylar davlatga sotilishidagi narxlar 20 foizgacha o'zgartirilishi mumkin.

Mazkur tajribaning mavjud ekanligi davlat tomonidan ijtimoiy himoya dasturlariga uyg'un ravishda aholini uy-joy bilan ta'minlashga imkoniyat yaratib beradi. Shu bilan birga, yangi qurilgan uylarning narxlari asossiz tarzda oshib ketishiga va spekulyasion xususiyatningg vujudga kelishiga olib kelmaydi.

E'tibor berish lozim, so'nggi vaqtlarda yangi qurilgan turar joy majmualarida ishlarni o'z vaqtida yakunlash va uy-joylarni egalariga topshirishga qaratilgan ishlar ko'plab noroziliklarga sabab bo'lmoqda. Jumladan, davlatimiz rahbari 2024 yil sentyabr oyida o'tkazgan videoselektorida noinsof quruvchilar to'g'risida fikr bildirib o'tdi .

Shundan kelib chiqib, aholining bo'sh turgan mablag'larini moliya bozoriga jalb etish va ushbu moliyaviy resurslar hisobidan va xususiy kompaniyalar tomonidan yangi quriladigan turar joy massivlarini moliyalashtirish mexanizmini joriy etish nazarda tutildi.

Respublikada aholining daromadlari qatlamlariga qarab uy-joylar bilan ta'minlash dasturlari takomillashtirilganligi ham ushbu masalani hal etishni taqozo etadi (3 rasm).



3-rasm. O'zbekistonda aholini uy-joy bilan ta'minlash mexanizmidagi davlat maqsadli jamg'armasini tashkil etish ekotizimi

Bugungi kunda aholining:

a) daromadi yuqori bo'lgan fuqarolar bozor tamoyillariga asoslangan ipoteka kreditlari (17-18 foizi ipoteka kreditining eng ko'p miqdori 420 mln so'm, 22 foizli ipoteka maksimal qiymati 700 mln so'mgacha) asosida uy-joylar sotib olishi mumkin.



b) daromadi yuqori bo'lmagan, uy-joy sharoitini yaxshilashga muhtoj bo'lgan aholini qo'llab quvvatlashga qaratilgan subsidiya tizimi.

Bunda, boshlang'ich badal sifatida 30 mln so'm miqdorida mablag' ajratilib, birinchi 5 yilda ipoteka kreditining foiz stavkasining 12 foizdan yuqorisi to'lab beriladi. (har bir oilaga subsidiya miqdori tahminiy 130 mln so'mdan to'g'ri keladi).

v) "Ayollar daftari", "Yoshlar daftari" va "Temir daftar"ga kiritilgan uy-joyga muhtoj xotin-qizlarni uy-joy bilan ta'minlash. Bunda:

Mahalliy, respublika byudjeti mablag'lari va qonunchilikda taqiqlanmagan boshqa manbalar hisobidan ijtimoiy uy-joylar sotib olinadi hamda ota-onasidan yoki ularning biridan ayrilgan hamda yolg'iz onasi, yolg'iz otasi yoki boshqa shaxslar qaramog'ida bo'lgan voyaga etgan uy-joyga muhtoj xotin-qizlarni uy-joy bilan ijara huquqi asosida ta'minlanadi.

Shu bilan birga, uy-joyga muhtoj xotin-qizlarga ipoteka krediti bo'yicha uy-joylarning hisoblangan qiymatining 15 foizi miqdorida boshlang'ich badal to'lab beriladi, shuningdek, birinchi 5 yil davomida foiz to'lovlari bilan bog'liq xarajatlarni qoplash uchun-10 foizlik punktdan oshgan qismiga subsidiyalar ajratiladi.

g) mahalliy hokimliklar balansida bo'lgan uy-joy fondidagi turar joylarni ijaraga berish.

Bunda, ijara haqi turar joyning umumiy maydonidan kelib chiqib, turar joyning 1 kvadrat metri uchun Toshkent shahrida bir yilga bazaviy hisoblash miqdorining 2 foizi (6 ming 800 so'm), Qoraqalpog'iston Respublikasi va viloyatlarda 1 foizi (3 ming 400 so'm) miqdorida belgilanadi.

Lekin ijara bozori rivojlanmagan va davlat ijara bozorida etarli uy-joy fondi shakllanmagan.

Uy-joy qurilishi sohasida faoliyat yuritayotgan korxonalarga qurilish uchun berilayotgan kreditlarning yillik foiz stavkasi yuqoriligi sababli (26-33 foiz) hududlarda uy-joylarning narxi qimmatlashishiga olib kelmoqda.

Olib borilgan tadqiqotlarimiz asosida biz 3-rasmda keltirilgan mexanizmni taklif etishga e'tibor berdik.

XULOSA VA TAKLIFLAR

Mamlakatimizda aholini uy-joy bilan ta'minlashda davlat vakolatli organini tashkil etish va unda aholini ijtimoiy qo'llab-quvvatlashni nazarda tutish bilan birga, unda nodavlat institutlarning ham ishtirokini nazarda tutish muhim hisoblanadi, deb o'ylaymiz.

Tadqiqotlar natijasida quyidagi ilmiy xulosalarni shakllantirishga muvaffaq bo'ldik:

Bizningcha, aholini uy-joy bilan ta'minlashda qator tizimli murakkabliklarni kuzatish mumkin. Ular sirasiga quyidagilarni kiritish maqsadga muvofiq, deb o'ylaymiz.

Birinchidan, respublikada aholini uy-joy bilan ta'minlash siyosatini yuritish va qabul qilinayotgan dasturlar amalga oshirilishini muvofiqlashtiruvchi davlat vakolatli organining tashkil etilmaganligi.

Ikkinchidan, davlat byudjetidan moliyalashtiriladigan ipoteka dasturlarini davlat maqsadli jamg'armasi shaklida tashkil etish, uning mablag'lari hisobidan foiz stavkalarini boshqarishga qaratilgan choralarni amalga oshirishga bo'lgan ehtiyojning mavjudligi.

Uchinchidan, mamlakatdagi uy-joy bozorini xususiy pudratchilar tomonidan qurilishini inobatga olib, ko'chmas mulk bozorida spekulyatsion vaziyatni yumshatish zarurati.

To'rtinchidan, aholining kam daromadli qatlami uchun uy-joy bilan ta'minlash dasturlarining to'liq joriy etilmaganligi. Bunda hududlar kesimida uy-joylar narxining farqlanishiga mos ravishda subsidiya dasturlarini takomillatirish zaruratining saqlanib qolayotganligi.

Umuman olganda, aholini uy-joy bilan ta'minlashda davlat maqsadli jamg'armasini va boshqa turdosh dasturlarni amalga oshirishda quyidagilarga e'tibor qaratish maqsadga muvofiq hisoblanadi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati

1. Tantan, B., & Turk, S. S. (2024). The Impact of Public Housing Investments on the Economic Development of Provinces: The Case of Turkey (TOKI). *Journal of Urban Planning and Development*, 150(1), 05024001.
2. Усманов Б. Аҳоли турмуш фаровонлиги ва унда давлатнинг молиявий сиёсати //Iqtisodiy taraqqiyot va tahlil. – 2023. – T. 1. – №. 7. – С. 410-417.
3. Примова Н. Натижага йўналтирилган бюджетлаштириш технологияси: назария ва амалий ечимлар //Economics and Innovative Technologies. – 2024. – T. 12. – №. 2. – С. 253-264.
4. Саттаров Р. А. Вилоятлараро ижтимоий-иқтисодий ҳамкорликни ривожлантириш (Фарғона, Андижон ва Наманган вилоятлари мисолида): и.ф.б.ф.д. ... автореферат. – Т.: ПМТИ, 2023. – 53 б.
5. Асадуллина Н. Р., Нормуродов С. Н. Ўзбекистонда уй-жой қурилишининг ривожланиш тенденциялари //golden brain. – 2023. – T. 1. – №. 26. – С. 11-23.

muhandislik **& iqtisodiyot**

ijtimoiy-iqtisodiy, innovatsion texnik,
fan va ta'limga oid ilmiy-amaliy jurnal

Ingliz tili muharriri: Feruz Hakimov

Musahhih: Zokir Alibekov

Sahifalovchi va dizayner: Abdurahmon Qurbonov

2026. № 4

© Materiallar ko'chirib bosilganda "Muhandislik va iqtisodiyot" jurnali manba sifatida ko'rsatilishi shart. Jurnalda bosilgan material va reklamalardagi dalillarning aniqligiga mualliflar ma'sul. Tahririyat fikri har vaqt ham mualliflar fikriga mos kelamasligi mumkin. Tahririyatga yuborilgan materiallar qaytarilmaydi.

"Muhandislik va iqtisodiyot" jurnali 26.06.2023-yildan
O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Adminstratsiyasi huzuridagi
Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligi tomonidan
№S-5669245 reyestr raqami tartibi bo'yicha ro'yxatdan o'tkazilgan.
Litsenziya raqami: №095310.

**Manzilimiz: Toshkent shahri Yunusobod
tumani 15-mavze 19-uy**





+998 93 718 40 07



<https://muhandislik-iqtisodiyot.uz/index.php/journal>



t.me/yait_2100